




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov

filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;

Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;

Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;

Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;

Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;

Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyligi uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



	O'zbek va qozoq tillaridagi "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarida qo'llanilgan qarindoshlik ma'nosini ifodalovchi so'zlar.	
15	Mohinur USMONOVA , O'zbek va qozoq xalq ertaklaridagi turg'un birikmalarning qiyosiy tahlili	541
16	Hayotxon SALAYEVA , Gurlan (Xorazm) shevasida polizchilikka oid xalq leksikasi xususida	544
17	Mufassal PARDAYEVA , Go'ro'g'li turkum dostonlarining dastlabki variantlarida Ahmad Sardor obrazi	547
18	Серік ТУРҒАНАЛИЕВ , Қабдеш жұмаділов прозасындағы төл тілдің көркемдік сипаты	551
19	Amina DEHQONOVA , O'zbek va nemis ertaklarida xalqona an'analar	554
20	Dilrabo KOMILOVA , Yangibozor (Xorazm) shevasidagi kiyim-kechak savdo-sotig'ida ishlatiladigan so'zlar	558
21	Mohinabonu YUNUSOVA , Toshkent viloyati uyg'ur shevalarining ayrim leksik xususiyatlari	561
22	Marjona MUSULMONOVA , Boysun tumani bog'dorchilik leksikasi	565
23	Barchinoy TOSHPO'LATOVA , Samarqand bolalar folklorining janrlar tarkibi	565
24	Moxlaroyim NAZAROVA , Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida etnografik folklorizmlarning badiiy-estetik talqini	574
25	Fotima KOMILOVA , O'zbek-turk qarg'ishlarning mifopoetik talqini	576
26	Shohsanam NOMAZOVA , Dostonlarda obrazlar tizimi masalasi va "Sanamgul" dostonidagi obrazlar	580
27	Muhtarama MAMITOVA , Oila mavzusi bilan bog'liq ayrim o'zbek va turk maqollarining tipologik tahlili	583
28	Lobar QULDASHEVA , Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda xalq og'zaki ijodidan foydalanishning pedagogik ahamiyati	587
29	Sunbula HABIBULLAYEVA , "Shirin va Shakar" dostonida fonetik dialektizmlarning o'rni (qo'llanishi)	590
30	Nilufar TURG'UNOVA , Sirdaryo viloyatidagi Andijon shevalarining fonetik morfologik xususiyatlari	594
31	Sarvinoz RAXIMOVA , G'ijduvon sandiqsozlik so'zlari	597
32	Aziza ELMIRZAYEVA , Usmon azim lirikasida folklor va badiiy ko'chim uyg'unligi	599
33	Diyora NE'MATOVA , Folkorda til va leksika masalasi: lingvofolkloristik tadqiqotlar tarixi, nazariy asoslari va zamonaviy yondashuvlar	605
34	Hanifa XODJIYEVA , Mavsumiy marosimlar tasnifi	611
35	Husniddin AZIMJONOV , Tarixiy haqiqat va badiiy talqin uyg'unligida bilga xoqon obrazi	614
36	Sitora O'KTAMOVA , Hajv tushunchasining etimologiyasi va falsafiy-estetik mohiyati	617



SAMARQAND BOLALAR FOLKLORINING JANRLAR TARKIBI

GENRE COMPOSITION OF SAMARKAND CHILDREN'S FOLKLORE

Barchinoy TOSHPO'LATOVA,

TOSHDQ' TAU magistranti

10.52773/tsuull.conf.2026.23-05/QKXN9837

Annotation. *The study of folk oral art is associated with the discovery of specific aspects of the life of the nation. With the study of children's folklore of each region, new approaches to its genres emerge. This article analyzes the genres and their features found in children's folklore of the Samarkand region. In the process of analysis, attention was paid to local features.*

Key words: *genre, lullaby, song, game, play-song, locally, tradition, saying.*

Har bir viloyatning bir-biridan farq qiluvchi xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lganidek, bolalar og'zaki ijodida ham o'ziga xosliklar mavjud. Samarqand bolalar folklorining boshqa viloyatlar kabi umumiy va o'ziga xos jihatlari bor. Viloyatda bolalar folklorining barcha janrlariga namunalar uchraydi. Lekin so'nggi yillarda xalq orasida bolalar folkloriga bo'lgan e'tibor susaygan. O'rganish jarayonida Samarqand viloyat bolalar folklori janrlaridan namunalar yig'ib, tahlil qilishga harakat qildik. Namunalar asosan Ishtixon, Nurobod, Qo'shrabot tumanlaridan to'plangan.

Bolalar folklori janrlarining ayrimlari bevosita kattalar bilan birgalikda, ularning ishtiroki bilan uyg'unlashadi. Darvoqe, alla, erkalama, ovuqmachiq kabi janrlar borki ularni, kattalar ishtirokisiz tasavvur qilish qiyin. Kattalar bolalarni erkalash poeziyasini yaratishganki, alla, aytim, olqish, erkalama, ovutmachiq, qiziqmachiq va qaytarmachiq singari erkalash motiviga limmolim janrlar tizimi onalik folklori tarzida xarakterlanadi. Bunday deyilishining sababi shundaki, bu janrlarga mansub asarlarning ijodkorligi va ijrochiligida onalar bosh rolni o'ynashadi. [Safarov, 2010:331]

Bolalar folklorida beshik davri bilan bog'liq janrlardan biri bu – **alladir**. Onalik mehrini she'rga jam qilgan allalar, nafaqat bolalarni uxlatish balki onaning bolasiga bo'lgan mehrmuhabbati, orzu-umidlarini yetkazib berishdir. Bola uchun allaning so'zi emas, ohanggi yoqimli. Chunki bola hali so'zga tushunmaydi, biroq yoqimli ohang og'ushida orom oladi. Beshik qo'shiqlarini folklorshunos olim O.Safarov *onalik poeziyasi, suvish qo'shiqlari* deb ham ataydi. Bularga allalar, huyalar, ovutmachiq, qiziqmachiq va erkalamalarni kiritishimiz mumkin. Allalar bolalarning emizikli davridan to'uch yoshiga qadar aytiladi. O'zbek xalq og'zaki ijodida allalar asosan, to'rtliklardan tashkil topgan. Shunday bo'lsa-da, onalarning bolasiga jo'shqin mehri, hissiyotlari natijasida undan ko'p misralar qo'shib yuborish holatlari uchraydi.

Samarqand bolalar folklori janrlari tarkibida allalarning o'rni beqiyosdir. O'zbek allalari kompozitsion jihatdan ikki turga bo'linadi: voqeaband (syujetli) allalar va parokanda allalar. Samarqand viloyati folklorida har ikkala turdagi allalarni kuzatish mumkin.

Bosgan qadami qutlug' bo'lsin

Alla-yo alla,

Imon nuri qalbgaga to'lsin

Alla-yo alla,

Ot bosmagan toylar bossin

Alla-yo alla,

Ulamolar ichida ulug' bo'lsin

Alla-yo alla. [Amirova Navat]

Ohangi yoqimli ushbu alla, keksa buvijonlar tomonida nabiralarini suyib, kelajakda buyuk insonlar bo'lib yetishishi uchun aytilgan mehr baytlaridir. Allalarning mavzu ko'lami har xil



bo'ladi. Allaning qanday ohangda aytilishi (g'amgin, xursandchilik ruhida) bu ijrochining kayfiyati va yoshiga bog'liq. Allalar kim aytilishiga ko'ra ikki turli bo'ladi:

- 1) Ayollar allalari;
- 2) Erkaklar allalari.

Samarqand viloyati hududlarida erkaklar tomonidan aytilgan alla (huyalar) namunalari uchratmadik.

Ovutmacholar ham asosan uch yoshgacha bo'lgan bolalarni erkaloovchi poeziyaning keng tarqalgan mustaqil janri hisoblanadi. [Safarov, 1983:64] Ovutmacholarga bola yig'laganda, g'ashlanganda, diqqati oshganda bolani ovutish maqsadida unga ehtiyoj tug'iladi. Samarqand viloyati bolalar folklorida ovutmacholarning janri anchagina faol:

Bolalar qochinglar

Moshina kelyapti

Di-dit, di-dit. [Shodmanova Mariya]

Ushbu ovutmacholarning Samarqand viloyatida asosan, bir yoshgacha bo'lgan bolalarni ovutish uchun aytiladi. Bu ovutmacholarda nafaqat so'z balki, harakat ham muhim rol o'ynaydi. Ovutmacholarning aytuvchi ko'rsatkich barmog'ini bolaning peshona, yuz, iyaklariga qo'yib, qo'shiqni aytadi. Ovutmacholarning so'ngida "di-dit" deb bolaning burniga qo'yadi va yakunlaydi.

Erkalamalar bolalar folklorining mustaqil janrlaridan biri bo'lib, g'oyat keng tarqalgan va qadimiydir. Erkalamalarning ovutmacholardan farqi, ular ko'tarinki kayfiyatda erkalamachilik ehtiyoji bilan tug'iladi, ovutmacholarning esa aksincha bola g'ashlanib yig'laganda aytiladi. Tili shirin bolajonlar ilk so'zlarini ayta boshlaganda, ilk harakatlari namoyon bo'la boshlaganda ota onalari xursandligidan erkalamalar aytiladi. O'zbek bolalar folklorining tadqiqotchisi G'.Jahongirov erkalamalarga ovutmacholarning deb qaraydi. [Jahongirov, 1975:20] Binobarin, o'zbek bolalar folklori materiallariga ham diqqat bilan nazar solinsa, ovutmacholarning bolalar g'ashligi oshganda yoki ular baqirib yig'laganda, betoqatlik qilganda aytilsa, etnografik poetik parchalar hamda obrazli iboralar beshik yoki go'dalik davri bilan bog'liq har xil udumlar, rasm-rusum va irim-chirimlarni bajarish jarayonidagi ijrosi tufayli erkalamalardan farq qiladi. [Safarov, 1983:51] Samarqand viloyati bolalar folklorida erkalamalar qisqa jumla "asal bolam meni", "jonim bolam meni" yoki "shirin bolam qani meni?" kabi erkalamachilik iboralar shaklida uchraydi. Bundan tashqari, viloyat hududida quyidagi erkalamalar ancha faol:

Zuhraxonning xoni,

Oq bug'doyning noni.

Hamma yomon ko'rsayam,

Onasining joni.

Yoki:

Joningga ursa,

Jahonda yursa.

Shunday bolang bo'sada,

Qori bolang bo'sada,

Maktaga borib,

Imomlar bo'sada. [Xudoyberdiyeva To'xtatosh]

Bundan tashqari, viloyatda beshik davri bilan bog'liq rasm-rusumlar, aytim-olqishlar juda faol. Bola tug'ilgandan keyin qirq kun chilla saqlash, shomdan keyin ko'chaga chiqmaslik, chillali uyga tunda kelib kirmaslik odatlari saqlangan. Qirq kunlik chilla ichida bola uch marotaba cho'mildirilishi, qorin sochlari olinishi, tirnoqlari olinishi kerak. Cho'mildirishda suvga tuproq, tuz hamda go'sht solib cho'mildiriladi. Tuz va tuproq uchta bolali xonadondan olinish odati mavjud. Chaqaloqning ilk tirnoqlarini esa oilaning yoshi katta buvalari tomonidan amalga oshiriladi. Tirnoqlar kitob yoki pulni ustiga olinadi. Qorin sochlari esa olib bo'lingach, mevali daraxtning tagiga ko'mib qo'yiladi. Bolani beshikka solayotganda onalarimiz quyidagi aytimni aytiladi:

Egasi keldi

Bapasi qoch. [Baxriyeva Oyshirin]



Samarqand viloyati hududlarida **mavsumiy-marosim qo‘shiqlari** keng tarqalgan. “Boychechak”, “Yomg‘ir yog‘aloq”, “Yo, ramazon” kabi qo‘shiqlar juda faol. Quyidagi qo‘shiq bahorda yomg‘ir yog‘ayotgan mahalda qizchalar tomonidan raqsga tushib aytiladi.

Yomg‘ir yog‘aloq, yam-yashil o‘tloq,

Endi ekinlar chiqarar quloq.

Yashmasin dala, yashmasin lola,

Tog‘lar qo‘ynida misli shalola. [Abdurasulova Diyora]

Viloyat hududida “Yo, ramazon” qo‘shiqlarining o‘nga yaqin variantlari mavjud. Deyarli har bir tuman hududida yangi namunasini uchratish mumkin.

Ramazon aytib keldik eshigingizga,

Xudoyim, farzand bersin beshigingizga.

O‘chog‘da kul, karmonda pul,

Chiqara qoling besh ming pul.

Besh ming pulni bog‘i bor,

Bog‘ida anori bor.

Anorini ichida shaqir-shuqur puli bor

Op chiqing, op ching

Cho‘ntangizga sop chiqing

Cho‘ntangizga siqmasa

Tog‘araga sop chiqing. [Eshquvvatova Mushtariy]

Quyidagi “Yo, ramazon” qo‘shig‘i Ishtixon tumani hududidan yozib olindi. Yozib olish jarayonida lokal xususiyatlarini buzmadik.

Quyuncham, quyuncham

Senga nima bo‘ldi?

O‘rningdan tur

Oynaga qara

Sochingni tara

Ko‘zingni yumib

O‘ngacha sana.

“Quyuncham” o‘yin qo‘shig‘i kichik yoshdagi bolalar o‘rtasida ancha faol bo‘lib, o‘yinda ishtirokchilar soni cheklanmaydi. Bolalar doira bo‘lib turishadi, o‘rtada bitta ishtirokchi quyon rolini o‘ynaydi. Quyon rolidagi ishtirokchi ko‘zini yumib aylanadi va qaysi ishtirokchi yonida to‘xtasa, galdagi quyon o‘sha ishtirokchi bo‘ladi. Samarqand viloyatida o‘yin qo‘shiqlari eng foal janr hisoblanadi. Biz viloyatdan o‘yin qo‘shiqlarining bir qancha namunalarini to‘pladik.

Solay, solay kinga solay?

Sochi uzun qizga solay

Yoki:

Besh karra besh,

Yigirma besh.

Kim oyog‘ini tushirsa,

Chista pes.

Yoki:

Rayu, rayu rapichka,

Oyog‘ida tapichka.

Tapichkasi uzildi,

Bobosiga tiktirdi.

Bolalarning quyosh, oy, kamalak, shamol, momoqaldiroq, yashin, yomg‘ir va tabiatning boshqa hodisalariga poetik munosabatlarini ifodalovchi qo‘shiqlari **yalinchoqlar** deyiladi. [Safarov, 1984:40] O‘rganilayotgan hududdan “Oftob chiqdi olamga” yalinchoq‘ining quyidagi variantini yozib oldik:

Oftob chiqdi olamga,



*Yugurib bordim xolamga.
Xola, xola kulcha ber,
Xolam dedi: o‘tin ter.
Keyin yugurdim qirga,
O‘rtog‘im bilan birga.
O‘tin terdik bir quchoq,
Sira bilmadik charchoq.
Xolam qordilar xamir,*

Kulcha yopdi bir tandir. [Eshmamatov A‘zam]

Bu yalinchoqni Samarqand viloyatida qish mavsumida bolalar ko‘chalarda baralla aytib yurishadi.

*Sumalak qaynadi-yo,
Menga bermadi-yo.
Bermasa bermasin-o,
Hovlimga bormasin-o.
Hovlim, hovlim uzoqda,
Ichar suvim buloqda.
Icha, icha mast bo‘ldim,
Qizlar bilan do‘st bo‘ldim.
Qizlar ketdi yarashib,
Men qoldim adashib. [Abdurahmonova Aziza]*

Arazlama janrining yorqin namunasi hisoblangan quyidagi she’rda *sumalak* so‘zi ishtirok etgani bilan faqat bahor mavsumida emas, viloyat hududida yilning to‘rt faslida ham aytilaveradi. Ushbu arazlamaga ehtiyoj xafalashib qolganda tug‘iladi. Arazlamani asosan qizlar aytishadi.

*Dada xormang,
Ishga bormang.
Meni ko‘taring,
Oq obering.
Qanaqasidan ?
“Zo‘r” idan.*

Aytishuv uch yoshgacha bo‘lgan bolalar orasida faol. Aytishuvda so‘z bilan birga harakat ham ishtirok etadi. Bola bosh barmog‘ini bersatib, “zo‘r” idan deydi.

Bolalar folklorining mustaqil va faol poetik janrlaridan biri **sanamalar**dir. Sanama janrining tadqiqotchisi S.Avezov sanamalarning tarixiy-genetik asoslari, qadimiy turkiy xalqlarning magik tasavvurlari, raqamlarga nisbatan animistik, totemistik qarashlar ta’sirida paydo bo‘lgan va shakllanib, ijtimoiy taraqqiyot tufayli bolalar o‘yin folkloriga o‘tib qolganligini asoslaydi. Samarqand viloyatida sanama janri keng tarqalgan. Ulardan namunalar keltiramiz:

*Olma dumalab ketdi,
Kampir quvalab ketdi.
Olma to‘xtab qoldi,
Kampir uxlab qoldi.*

Ushbu sanamacholni “Bekinnachol” o‘yinida aytadi. Hamma bolalar doira bo‘lib turib oladi va bitta ona boshi (bu ixtiyoriy, kim sanoqni aytmoqchi bo‘lsa) sanamacholni aytadi. Sanamachol qaysi bolada tugasa, u chiqadi. Shu zaylda oxirida bitta bola qolguncha sanamachol aytilaveradi. Oxirida qolgan bola, yashiringan bolalarni izlab topadi.

*Olma desam otilasan,
Behi desam bekinasan.
“Bekunnachol” o‘yinida bolalar shu aytimni aytishib sheriklarini chaqiradilar.
Do‘stmisan? dushmanmisan?
Kel do‘stligimiz sinaylik.
O‘n birligacha sanaylik*



Bir, ikki, uch.....

Bu sanamada ikki ishtirokchi qo'llarini bir-biriga urib chapak chaladi va sanoqni aytishadi. Samarqand viloyatida ma'naviy so'z o'yinlar sirasiga kiruvchi, “**guldur-gup**” va “**chandishlar**” ancha keng tarqalgan. Ayniqsa, viloyatda chandishlarning biz bilgan yigirmaga yaqin varianti mavjud.

- *Salom degin*
- *Salom*
- *Sassiq bolam.*

Yoki:

- *Uch degin*
- *Uch*
- *Ikki qo'ling puch.*

Guldur-gupning eng keng tarqalgan varianti:

O'raga sichqon tushdi

Guldur-gup.

Bundan tashqari, bu viloyat bolalari ijodiyotida **tegishmachoqlar** ham o'rni katta. Misol uchun:

1. Uzun terak

Kinga kerak.

2. Chaqmachaqaq, chaqmachaqaq

Tonga chiqib, bitini boqar.

Tegishmachoqlar bolalarning bir-birlariga yoki kattalarga hazilkashliklari, tegishishlaridan tug'iladigan yumoristik janr hisoblanadi. O'zbek folklorshunosligida tegishmachoqlarning to'rt ichki turi e'tirof qilingan. [Safarov, 1985:224] Laqab, portret, epigrama va uyaltiruvchi tegishmachoqlar. Yuqorida keltirilgan tegishmachoqlar – laqab hamda portret tegishmachoqlarga misol bo'la oladi.

Ko'rinib turibdiki, xalq, millat bor ekan uning mavjudligini ko'rsatib turuvchi og'zaki ijod namunalari umrboqiy yashayveradi. Bolalar folklori hududiy jihatdan o'rganilishi asnosida xalq og'zaki ijodi boyib boradi. Chunki, har bir hududning umumiy, yoki bir-biriga o'xshamaydigan o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi. Biz o'rgangan Samarqand viloyati bolalar folklor janrlari ham ana shu o'ziga xosliklardan edi va biz ularning ba'zilarini tahlil qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarov O. Bolalarni erkalovchi o'zbek xalq qo'shiqlari. – Toshkent: Fan, 1983. – B. 64.
2. Safarov O. O'zbek bolalar poetik folklori. – Toshkent: O'qituvchi, 1985. – B. 224-237.
3. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Musiqachi, 2010. – B. 352.
4. Safarov O. Yalinchochlarning janr tabiatiga doir // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1984. – № 1. – B. 40.
5. T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo'rayev, J.Eshonqulov, A.Tilavov. O'zbek folklori. Darslik. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2020. – B. 186.